

B.M.BAHRIDDINOVA

**HOZIRGI O‘ZBEK TILI
(GRAMMATIKA)**

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN QO‘LLANMA

B.M.BAHRIDDINOVA

HOZIRGI O‘ZBEK TILI (GRAMMATIKA)

Oliy ta’lim filologiya yo‘nalishi talabalari uchun amaliy, seminar
mashg‘ulotlarni bajarishga mo‘ljallangan

Qarshi - 2020

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “Hozirgi o‘zbek tili” fanining “Morfologiya” va “Sintaksis” bo‘limlari yuzasidan amaliy, seminar mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim topshiriqlari, shuningdek, kurs ishlarini bajarishda yordam berish maqsadida tayyorlangan.

Undan oliy filologik ta’limning boshqa yo‘nalishlari, shuningdek, akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek tili” fani bo‘yicha amaliy va seminar mashg‘ulotlarni olib borishda ham foydalanilishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.Mengliyev, Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

M.Saparniyozova, Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

N.Musulmanova, Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

O‘quv qo‘llanma Qarshi davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. (25-iyun 2018-yildagi 5-bayonnoma)

SHARTLI QISQARTMALAR

AHVO	alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat
GK	grammatik kategoriya
GM	grammatik ma'no
LMG	lug'aviy mazmuniy guruh
LSQ	lisoniy sintaktik qolip
OGM	oraliq grammatik ma'no
UGM	umumiy grammatik ma'no
UMIS	umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab
XGM	xususiy grammatik ma'no
SYQ	So'z yasalish qolipi
SY	So'z yasovchi
SHY	Shakl yasovchi

SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda oliy filologik ta’lim oldiga o‘zbek tili va adabiyotining o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning hamda ushbu soha bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu vazifaning a’lo darajada amalga oshirilishi ta’lim beruvchiga ham, ta’lim oluvchiga ham, ta’lim vositasiga ham yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda. Fan-texnika keskin rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsiya vositalari o‘ta shiddat bilan taraqqiy etayotgan, hayot sur’atlari beqiyos tezlashgan ayni paytda ta’lim oluvchining nafaqat soat sayin yangilanib borayotgan bilimlarni tezlik bilan o‘zlashtiradigan, balki ular ichidan eng mukammalini ajratib oladigan, to‘g‘risini izlab topa biladigan, ta’lim beruvchining o‘ta izlanuvchan, yangilikni tez o‘zlashtirib olayotgan, aniq xulosalargagina ishonadigan o‘quvchining talablariga to‘la javob bera oladigan, ta’lim vositasining esa o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan, hatto tajribasiz o‘qituvchining kamchiliklarini ham bartaraf qiladigan darajada mukammal bo‘lishi talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha filolog mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar, yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayni shu yo‘nalishlarda ilmiy va o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi bo‘lishi maqsad qilingan mazkur universitetning asosiy vazifalari sanalar ekan, “o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish”ga alohida e’tibor qaratiladi.

“Hozirgi o‘zbek tili” kursi oliy filologik ta’limda o‘qitiladigan lingvistik predmetlar ichida eng asosiy fan bo‘lib, umumiy o‘rta ta’limning “Ona tili”, akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, kasb-hunar kollejlarning “Ona tili va adabiyot”, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning “O‘zbek tili” darsliklarining ilmiy asosini qamrab oladi. Ushbu qo‘llanma talabalarning “Hozirgi o‘zbek tili” fanining “Morfologiya” va “Sintaksis” bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u amaliy va seminar mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim topshiriqlari, shuningdek, kurs ishlarini bajarishga mo‘ljallangan.

Qo‘llanma oliy ta‘limning 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) hamda 5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishlarida “Hozirgi o‘zbek tili” fanining malaka talablari, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida, milliy g‘oya va ma‘naviy qadriyatlarimizga mos yaratilgan bo‘lib, fanga tegishli bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirib olishga, ularda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o‘quv materialini mustaqil izlash va topish, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar berishga xizmat qiladi.

Qo‘llanmani yaratishda “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” (OO‘MTVning 02.08.2013-dagi 278-sonli buyrug‘i) da nazarda tutilganidek “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida respublikada joriy etilgan uzluksiz ta‘lim tizimining ta‘lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlash, fanlarda mavzular izchilligiga, oddiydan murakkabga, xususiylikdan umumiylikka o‘tib borishga hamda mavzularning takrorlanmasligiga alohida e‘tibor” berildi.

Qo‘llanmaning maqsadi o‘zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish, o‘zbek tili grammatik qurilishini hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilishga doir bilimlarni mustahkamlashdan iborat. Qo‘llanma hozirgacha ushbu fan yuzasidan yaratilgan boshqa vositalardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. O‘zbek tilining morfemik, derivatsion, morfologik va sintaktik qurilishini lison va nutq farqlanishi asosida tahlil qilishda ilmiy tamoyil birligiga putur yetkazmaslik, metodik ko‘rsatmalarga amal qilish, ifoda usulining tog‘ri bo‘lishi hamda grammatik qonuniyatlarning izohlanishi uchun keltirilgan misollarning hozirgi o‘zbek tili uchun ahamiyatli bo‘lishiga e‘tibor berildi. Nazariy va amaliy topshiriqlar tizimini shakllantirishda o‘zbek tilshunosligining istiqlolgacha bo‘lgan va so‘nggi yillarida qo‘lga kiritgan yutuqlariga tayanildi.

2. Qo‘llanma zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga moslashtirildi. Mashq va topshiriqlar ilg‘or pedtexnologiyalar asosida ishlab chiqildi. Amaliy topshiriqlarni bajarishda har bir mavzu bo‘yicha avval yangi mavzuga yaqinlashtirish, fikrni jamlash, diqqatni tortishga qaratilgan kuzatish mashqlari, keyin oldingi mavzu bilan bog‘lashga qaratilgan izlanish, fikrlash mashqlari, so‘ngra alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylik va farqlarni aniqlash, tasnif etish, xulosalash va, nihoyat, o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash bilan bog‘liq topshiriqlar tizimidan iborat algoritmi shakllantirish, shuningdek, talabalarning o‘zbek tilshunosligining istiqlolgacha va istiqloldan so‘ng qo‘lga kiritgan yutuqlariga doir o‘zlashtirgan bilimlarini sintez qilgan holda amalda qo‘llay olishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Qo‘llanmani yaratishda filologiya fanlari doktorlari, professorlar N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Ne‘matov, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova kabi olimlar va ularning izdoshlarining tadqiqotlari ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan asos vazifasini o‘tagan.

Mazkur qo‘llanma o‘rta umumta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun ham yordamchi qo‘llanma vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan.

I BO'LIM. AMALIY MASHG'ULOTLAR.

MORFOLOGIYA KIRISH

Tayanch tushunchalar: grammatika, morfologiya, sintaksis, grammatik shakl, grammatik ma'no, so'z turkumlari, grammatik shakllangan so'z, morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no.

Aqliy hujum uchun savollar:

1. "Grammatika" so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Morfologiyaning o'rganish obyekti nima?
3. Grammatik ma'no qa leksik ma'noning farqi qanday?
4. Grammatik shakl deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Halollik gigiyenasi

Dasturxonimizga tortiladigan taom masalliqalarini xarid qilishdan to uni tayyorlab, pishirib, suzib keltirguncha ularning ozodaligiga e'tibor qilamiz. Muzxonada saqlaymiz, chang-g'ubordan muhofazalash uchun doka-sochiqlar yopib qo'yamiz. Nihoyat, ovqatlanishga o'tirishdan avval qo'llarimizni yuvamiz; qoshiq va sanchqilarni qayta-qayta artishdan erinmaymiz.

Uncha-muncha ozodalik gigiyenasiga odatlanganimiz bois, mikrobdan qo'rqamiz, biroq ozodalik gigiyenasidan ilgariroq keladigan, ehtimol, mikrobdan dahshatliroq bo'lgan halollik gigiyenasini xayolimizga keltirmaymiz.

Dasturxonimizga tortilayotgan masalliqalarni, tanovul qilayotgan noz-ne'matlarni halollab topdikmi? Qayerdan keldi ular ro'zg'orimizga? Qaysi mehnatlarimiz evaziga qozonimizga solyapmiz ularni? Birovlarning haqidan urib qolganimiz hisobiga emasmi? Kimlarnidir qon qaqshatish hisobiga orttirmagan edikmi ularni? Boshiga og'ir musibat tushgan bechoradan tama yo'li bilan undirib olgan poralarimiz hisobiga emasmi?..

Nopok va harom yo‘llar bilan topilgan taomni jig‘ildonga tiqishtirayotib ozodalik gigiyenasiga har qancha rioya qilmaylik, bu bilan luqmamiz poklanib qoladimi?

Bozor munosabatlarining tinimsiz toblanishi, o‘tish davrining shiddati va behalovat turmush tarzi odamlarni shu qadar komiga tortib ketdiki, bunday nozik savollar haqida o‘ylashga, mulohaza yuritishga fursat yetmayapti. Eng dahshatlisi shundaki, mana shunday taqchillikka ko‘nika borganimiz sayin o‘zimizni savolga tutish, o‘zimizni o‘zimiz terqash odati ham unutilib ketmoqda.

Ehtimol, bandasining tabiatida, fe‘l-atvorida mana shunday bosar-tusarini bilmay qolish odati mavjudligi uchun ham Alloh taolo hikmatlarga boy Ramazon oyini yaratgan chiqar! Kundalik behalovatliklar orasida ma‘naviy poklanmoqlik uchun namoz fursatlari joriy etildi, yillik behalovatliklar ichra nafas rostlamoqlik uchun esa ro‘za oyi belgilandi.

Nafasni rostlashni nafsni rostlash deya talqin qilsak ham yanglishmasmiz.

Tirik jon bor ekan, nafsiga quloq osmay iloji yo‘q, zero, hech bir banda Payg‘ambarimiz alayhissalom singari go‘daklik kezlari nafs pardasidan xalos etilgan emas. Bu yorug‘ olamning boqiy jumboqlaridan biri shuki, nafs bandalarining insoniylik martabasi, halolligi, diyonat va iymon maqomi nafsini tiya olish-olmaslik bilan belgilanadi.

Yaxshiyam, jamiyatimizda ijtimoiy muhofaza siyosati barqaror, aks holda shataloq otayotgan, imoniy nafsini bozoriy nafsga ikki qo‘llab almashlab yuborayotganlar yana qanaqangi «karomatlar» ko‘rsatmas edi! Shuning uchun ham barchamiz «Halollik gigiyenasi»ga rioya qilaylik!

Topshiriqlar:

1. Matn tarkibidagi so‘zlarni ifodalayotgan kategorial ma‘nosiga ko‘ra guruhlariga ajrating. Leksemalarning lug‘aviy va sintaktik shakllarini farqlang.

2. Morfologik jihatdan o‘zgaradigan va o‘zgarmas, gap bo‘lagi bo‘lib kela oladigan, sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan hamda so‘z-gap bo‘lib kela oladigan so‘zlarni guruhlang.

KREATIV TEST

Savol	A	B	C	D
--------------	----------	----------	----------	----------

Morfologik paradigma:	morfologik kategoriya	so‘z turkumlari	nokategorial shakllar	so‘zning morfologik shakllari
UMIS:	umumiylik, mohiyat imkoniyat, sabab	umumiylik, muhimlik, imkoniyat, sabab	universallik, mohiyat imkoniyat, sabab	umumiylik, mohiyat ixchamlik, sabab

O‘ZBEK TILI MORFEMIKASI

Tayanch tushunchalar: morfema, so‘z tarkibi, asos, qo‘shimcha, so‘z yasovchi qo‘shimcha, derivatsion morfema, grammatik morfema, lug‘aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar, shakldosh morfema.

Blits-so‘rov

1. Morfemalarga an‘anaviy yondashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Morfemalar turlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qaysi shakllarga nisbatan shaxsiy baho shakllari deyiladi?
4. Morfemalarning ma‘naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. Gaplar asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim, Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo. (A.Oripov)
2. Avaz o‘rnidan qushday yengil turdi. Oppoq bo‘lib yorishgan yangi tong havosidan, bezovta ko‘nglida tug‘ilgan yangicha bir tuyg‘ular navosidan jon-jahoni yayradi. (S.Siyoyev)
3. Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi. (O‘.Hoshimov)
4. O‘rtasiga qor uyib qo‘yilgan katalakdek hovli. (O‘.Hoshimov)
5. Nazaratchilarimiz jamoatchilik topshiriqlari bilan birga o‘z ish-vazifalarini ham vijdonan, halol ado etib, alohida ibrat ko‘rsatmoqdalar. (Gazetadan)
6. U titrab ketayotgan barmoqlari bilan og‘zini to‘sdi. (O‘.Hoshimov)
7. Vatan tarixini biling. Uni tuhmat va axlatlardan tinimsiz tozalang. Shavkatli tariximizni zamonaviy, mahobatli, tarixiy ishlar bilan boyitishga harakat qiling.
8. Sen bo‘lmasang so‘zlarning bag‘ri ming

tilim bo'lar, Onajon, ona tilim, mening shohona tilim. 9. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi. 10. Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamol topgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida ahamiyatga ega.

Topshiriqlar:

1. Gap tarkibidagi so'zlarning ma'noli qismlarini aniqlang.
2. Asos va qo'shimchalarni ajratib, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turini ayting.

2-mashq. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Morfemalarni funksional belgisiga ko'ra guruhlariga ajrating.

adabsizlarcha, aljiramoq, asabiylashtirmoq, anglamoq, shaxsiyatiga, aqlsizlik, kechikmoq, aksirmoq, kemtilgan, mardikorchilik, kelishmovchilik, bilimdonlarimizning, so'roq, yutug'ini, ko'nglidagi, yuragimdan, ulg'aytirgan, chanqoq, og'zaki, yumshoq, o'ynab, uyum, uyim, issiq, tilim, uylanmoq, o'ylanmoq, terim, changi, haybarakallachi, qarichilik, tushunmovchilik, sarg'ayma, sirtmoq, quymoq, qaltiroq, guldurak, do'mbira, gulduros.

3-mashq. Matni ko'chiring. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalarning gap qurilishidagi roliga e'tibor qiling. So'zlarni bog'lashga, so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilashga va so'zlarni ham bog'lash, ham gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifaga xoslaydigan shakllarni ajratib, qavs ichida izohlang.

Hikoyat

Hind dengizida bir savdogar bor edi. U savdo-sotiq ishlarida juda mohir edi. Uning dimog'iga savdo moyasi o'rnashib olib, suvga g'arq bo'lish xayoliga ham kelmasdi. Bir mamlakatda o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv sari yo'l tutar edi. U dengizni har xil ofatlardan xoli deb o'ylab, yillar shu yanglig' safar qildi. U Makka atrofini suvda necha bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yaqiniga yetgach, o'z farzini ado etmay qaytardi. Kishilar unga hajni ham bajarish kerak, deb aytar edilar. Ammo pul hirsini savdogarni u tomon borishga yo'l qo'ymas edi.

Bir kun dengizda bo‘ron ko‘tarildi. U tushgan kema goh osmonga sapchir, goh pastga tushib ketar edi. Savdogar savdo ishlariga g‘arq bo‘lganidek uning kemasi ham dengizda g‘arq bo‘ldi. Dengizda suzish xayoli haj sari yo‘l bermadi. Oxir-oqibatda u katta bir baliqqa yem bo‘ldi. (“Lison-ut tayr”dan)

4-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilarning so‘zning atash va vazifa semasiga ta’sirini izohlang.

1. **Yemas** yerga o‘t bitar, **ichmas** yerga suv bitar. 2. Suvni sep **singar** yerga, so‘zni qil **sig‘ar** yerga. 3. **Ko‘rinmas** balo - oyoq ostida. 4. **Yotgan** ilonning quyrug‘ini bosma. 5. Bilimsiz mulladan ustiga yuk **ortilgan** eshak yaxshi. 6. **So‘zlay-so‘zlay** gapchil bo‘larsan, **ishlay-ishlay** epchil bo‘larsan. 7. **Toma-toma** ko‘l bo‘lur. 8. Oqsoqol **tayinlab-tayinlab** aytuvdila. 9. Loyga **belanib** ketmon chopgandan ko‘ra, tabelchi bo‘lsangiz yomonmi!... 10. Bobom saharlab eshak **minib** dalaga chiqib ketadi. 11. **Kelmoq** – ixtiyor bilan, **ketmoq** – ijozat bilan. 12. Pulni **topish** oson, uni sarflay **bilish** qiyin.

5-mashq. So‘zlarni ko‘chiring. Morfemalarning so‘zga qo‘shilish tartibini tushuntiring. Sodda va qo‘shma (murakkab) morfemalarni ajrating. Birdan ortiq affiksning yaxlitlanish jarayonini izohlang.

1. kitobxonlarimizning, bilimdonlardan, keldingizlarmi, o‘qitishmaydi, aytmabmidim, ketmoqchiman, kitobchasiga, sarg‘imtirrog‘ini, o‘ntachasini, boryapmiz.

2. chorvachilik, temirchilik, mardikorchilik, oliftagarchilik, zargarchilik, afsuslanmoq, uylanmoq, o‘ylanmoq, gulduros, sharros, yigitchasiga, mardlarcha, ulfatchilik, salomlashmoq, arazlashmoq, gazlashtirish, bahslashmoq, oylab, ishlab, saharlab, xayolan, shaklan, lazzatlan.

6-mashq. So‘zlarni ko‘chiring. Shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli, ko‘p ma‘noli affikslarni ajratib, ma‘nolarini namunadagidek izohlang.

Namuna: egik -ik, omonim af. (bit-ik, ot yas.; sin-iq, sifat yas.; zo‘r-iq, fe‘l yas.)

MUNDARIJA

I BO‘LIM. AMALIY MASHG‘ULOTLAR. MORFOLOGIYA

Kirish

O‘zbek tili morfemikasi

O‘zbek tili derivatsiyasi va so‘z yasalishi

Hozirgi o‘zbek tili grammatikasi.

Grammatik shakl va grammatik ma’no

Grammatik kategoriyalar

Hozirgi o‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumlari

Fe’l so‘z turkumi

Ot so‘z turkumi

Sifat so‘z turkumi

Son so‘z turkumi

Ravish – so‘z turkumi

Taqlid so‘zlar

Olmosh so‘z turkumi

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar

Hozirgi o‘zbek tilida yordamchi so‘z turkumlari

So‘z-gaplar

II BO‘LIM. AMALIY MASHG‘ULOTLAR. SINTAKSIS

Asosiy sintaktik birliklar. Sintaktik aloqa va munosabatlar

So‘z birikmasi sintaksisi

Gap va uning qurilishi

Gapning lisoniy bo‘laklari

Gap kengaytiruvchilari. Ega

Hol

To‘ldiruvchi va aniqlovchi – so‘z kengaytiruvchisi

Sodda gaplarning murakkablashuvi

Uyushgan gap

Qo‘shma gap

O‘zga gapli sintaktik qurilmalar

Murakkab sintaktik butunlik

Punktuatsiya

III BO‘LIM. SEMINAR MASHG‘ULOT MAVZULARI

Morfema, turlari, lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanishi

O‘zbek tili derivatsiyasi va so‘z yasalishi muammolari

Grammatik shakl, grammatik ma’no, grammatik kategoriya

O‘zbek tilida so‘z turkumlari. Mustaqil so‘z turkumlari

Fe’l, grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari

Ot, grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari

Sifat, grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari

Son, grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari

Ravish va uning grammatik xususiyatlari

Taqlid va uning grammatik xususiyatlari

Olmosh va uning grammatik xususiyatlari

O‘zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar

Yordamchi so‘zlar

O‘zbek tilida so‘z-gaplar

So‘z birikmalari. Lisoniy sintaktik qolip. Valentlik nazariyasi

Gap tasnifi

Kesim va uning nutqiy voqelanishi

Gap kengaytiruvchilarning nutqiy ifodalanishi

So‘z kengaytiruvchilarning nutqiy ifodalanishi

Ajratilgan bo‘lakli va uyushiq bo‘lakli gaplar

Undalmali va kiritmali gaplar

Uyushgan gap

Qo‘shma gap

Qo‘shma gap turlari

Punktuatsiya va sintaksis

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Glossariy